XORAZM VILOYATI SHOVOT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 6-iyul | 405-12-177-Q/24 | Shovot tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyunda “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-sonli qarori hamda bu yuzadan viloyat hokimining 2024-yil 1-iyuldagi 262-12-0-Q/24-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyunda “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyunda “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Yoshlar ishlari agentligiga yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish jarayonlarini takomillashtirish, xorijiy tillarni o‘qitish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini (keyingi o‘rinlarda-xususiy o‘quv markazlari) qo‘llab-quvvatlash, xususiy o‘quv markazlari reytingini shakllantirish, yoshlar orasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganishni targ‘ib qilish, ushbu yo‘nalishdagi ijtimoiy loyihalar, ko‘rik tanlov va olimpiadalarni tashkil etish kabi qo‘shimcha vazifalar yuklanganligi;

imtihon topshirish xarajati qoplanadigan xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha ingliz, nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillaridan kamida S1 yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikat olgan yoshlarni imtihon topshirish xarajatlarini kompensatsiya qilishga qo‘shimcha ravishda Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag‘lar doirasida o‘qish xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir martalik moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy etilishi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining sinf xonalarini ta’lim jarayonidan bo‘sh vaqtda kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini amalga oshirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida tekin foydalanish huquqi bilan xususiy o‘quv markazlariga berishga ruxsat etilishi;

Bunda tekin foydalanish to‘g‘risidagi shartnoma balansida saqlovchi va xususiy o‘quv markazi o‘rtasida tuzilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (X.Rajabov) 2024-yilda belgilangan rejaga asosan umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sinf xonalarini xususiy o‘quv markazlariga kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini amalga oshirish uchun tekin foydalanishga bersin;

Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (I.Jumaboyev) 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarining chet tili fani bo‘yicha darslarida videomahsulotlardan, shu jumladan, “Ibrat farzandlari” platformasidan keng foydalanishni yo‘lga qo‘ysin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Kuranbayev) Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (I.Jumaboyev) bilan birgalikda:

2024-yil 1-oktabrga qadar olis va chekka hududlarda faoliyat ko‘rsatuvchi eng yuqori ko‘rsatkichga ega xususiy o‘quv markazining ro‘yxatini tasdiqlasin hamda rasmiy veb-saytida e’lon qilsin;

5. Tuman hokimligi (S.Saidov, M.Kuranboyev), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (N.Bakiyev) bilan birgalikda xorijdagi ko‘makka muhtoj bo‘lgan yoshlar muammolarini hal etish, ularni Vatanga qaytarish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish hamda bandligini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Kuranbayev zimmasiga yuklatilsin.

Shovot tumani hokimi **O.Xolboyev**